DIALEKTAL QARG‘ISHLARDA EVFEMIZM VA DISFEMIZMNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Javliyeva Durdona Shuxrat qizi
Termiz davlat universiteti magistratura bo‘limi, Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dialektal qarg‘ishlarning evfemik va disfemik jihatdan lingvistik tahlili amalga oshirilgan. Qayd etish lozimki, har bir hudud doirasida qo‘llaniladigan qarg‘ishlar ayrim jihatlariga ko‘ra fonetik, leksik, grammatik jihatidan bir-biridan farqlanib, ularning evfemik va disfemik xususiyatlarini ochib berish maqola ko‘lamining naqadar kengligidan dalolat beradi.
Kalit so‘zlar: dialektal qarg‘ish, evfemizm, disfemizm, lingvistik tahlil, leksik, grammatik va fonetik differensiatsiya.
Abstract. In this article, a linguistic analysis of dialectal curses in terms of euphemism and dysphemism is carried out. It should be noted that the curses used in each region differ from each other phonetically, lexically, and grammatically, and revealing their euphemistic and dysphemic features indicates the breadth of the scope of the article.
Keywords: dialectal cursing, euphemism, dysphemism, linguistic analysis, lexical, grammatical and phonetic differentiation.
Абстрактный. В данной статье проводится лингвистический анализ диалектных ругательств с точки зрения эвфемизмов и дисфемизмов. Следует отметить, что употребляемые в каждом регионе ругательства отличаются друг от друга фонетически, лексически и грамматически, а выявление их эвфемистических и дисфемических особенностей свидетельствует о широте рамок статьи.
Ключевые слова: диалектная ругань, эвфемизмы, дисфемизмы, лингвистический анализ, лексическая, грамматическая и фонетическая дифференциация.

KIRISH.

Barchamizga ma’lumki til uch sathdan, ya’ni fonetik, leksik, grammatik sathdan iborat bo'lib, ular sistem-struktur jihatdan bir-biri bilan o‘zaro aloqadordir. Bundan tashqari, tilning o‘rganilish bo‘limlari mavjud: fonetika, leksikologiya, etimologiya, onomastika, onomasiologiya va hokazo. Ana shunday til bo‘limlaridan biri dialektologiya hisoblanadi. Dialektologiya yunoncha, "**dialect**" - sheva, lahja; "**logos**" - ta’limot ma’nosini anglatib, tildagi lahja, shevalarni o‘rganuvchi soha hisoblanadi[3]. Dialektologiyaning o‘z o‘rganish maqsadi mavjud bo‘lib, unga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tildagi sheva va lahjalarni tadqiq etish;
- ularni fonetik, leksik va grammatik jihatdan tahlilga tortish;
- tilda mavjud lahja va shevalarning o‘zaro o‘xshash hamda farqli jihatlarini ochib berish va hokazo[1].


Dialektlar, sodda til bilan aytganda, xalq og‘zaki nutqi sanaladi. U xilma-xil birliklardan tashkil topgan. Jumladan, maqtov, qarg‘ish, varvarizmlar, vulgarizmlar, duoibadlar va hokazo. Ushbu maqolamizning asosiy g‘oyasidan dialektal qarg‘ishlar o‘rin olgan bo‘lib, ularning evfemik va disfemik tahlili lingvistik nuqtayi nazardan ochib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Qarg‘ish so‘zlar - insoniyat nutqida qadim davrlardan buyon mavjud bo‘lib, ularning asosiy maqsadi qarg‘ovchining qarg‘alayotgan shaxsga nisbatan zarar, ziyon yetkazish sanaladi. Qarg‘ish so‘ziga dastlab tarixiy-qiyosiy grammatikaning asoschisi bo‘lmish Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida duch kelamiz. Muallif turkiy xalqlar nutqida ushbu so‘zning ikki ko‘rinishi bor ekanligini o‘z asarida qayd etib o‘tadi:

I. Qarg‘ish.
II. Qarg‘aq[8].

Bundan tashqari, ushbu leksik birlikning “yomon maqsadda/niyatda aytilgan so‘z” ma’nosi ham nutqimizda keng qo‘llaniladi. Qarg‘ishlarni lingvistik nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, ularning turli jihatlariga duch kelishimiz mumkin, xususan, qarg‘ishlar davr jihatidan ikki guruhga ajratiladi:



Tarixiy qarg‘ishlar xalq og‘zaki nutqida avvaldan shakllanib kelgan, bugungi kunga qadar yetib kelgan leksik ifodalar hisoblansa, zamonaviy qarg‘ishlar bugungi fan-texnika taraqqiyoti natijasi o‘laroq yuzaga kelgan qarg‘ishlar sifatida e’tirof etiladi. Tarixiy qarg‘ishlarga misol sifatida “juvonmarg bo‘lgur”, “oyoqosti bo‘lgur”, “beting yerga qaragur” kabi birliklarni keltirsak, zamonaviy qarg‘ishlarga “telefoning singur”, “telefonsiz qolgur”, “telefoningga o‘t tushkur” kabi jumlalarni qayd etib o‘tsak bo‘ladi[11]. Demak, ularga xos davriylik jamiyat nuqtayi nazaridan aks etishi yuqoridagi misollardan ham ma’lumdir.

Bundan tashqari, qarg‘ishlar mavzu jihatidan ham xilma-xillikni kasb etadi, ularni quyidagicha guruhlar maqsadga muvofiqdir:

- diniy e’tiqod bilan daxldor qarg‘ishlar;
- salomatlikka bog‘liq qarg‘ishlar;
- oilaviy masalalarni aks ettiruvchi qarg‘ishlar;
- inson yoshiga bog‘liq qarg‘ishlar;
- o‘limga bog‘liq qarg‘ishlar va hokazo[7].

Yuqorida nomlari sanalgan guruhni yana davom ettirsak bo‘ladi. Biroq ushbu maqolamizning diqqat markazidan dialektal qarg‘ishlar o‘rin olgan bo‘lib,ulardagi evfemizm va disfemizm hodisalarining lingvistik tadqiqi tahlilga tortilgan.

Ushbu maqola mavzusini tahlil qilishda tavsifiy, tasnifiy metodlardan unumli foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Dialektal qarg‘ishlar bu xalq og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, xilma-xil mavzulardan tashkil topgan, har bir hududning o‘ziga xos milliy mentaliteti, dunyoqarashi, tiynati nuqtayi nazaridan o‘z ifodasini topgan leksik birliklar sanaladi. Qayd etib o‘tish lozimki, har bir hudud doirasida qo‘llaniladigan qarg‘ishlar ayrim jihatlariga ko‘ra fonetik, leksik, grammatik jihatidan bir-biridan farqlanib, ularning evfemik va disfemik xususiyatlarini ochib berish orqali o‘zaro o‘xshash hamda differensiatsion sifatlarini aniqlash mumkin.

Dialektal qarg‘ishlarda evfemizm va disfemizm hodisalari yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida evfemizm tahliliga ilk tamal toshi professor Anvar Amonturdiyev tomonidan qo‘yilgan. Lingvistik nuqtayi nazardan evfemizm va disfemizm terminlariga turlicha baholar mavjud. Ba’zi manbalarda evfemizmga so‘z ifodalagan qo‘pol ma’noni qolipga o‘rab aytish bahosi berilgan

bo‘lsa, ayrim tahlillarda disfemizmning ham shunday vazifasi bor ekanligi qayd etib o‘tilgan. Biroq ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, disfemizm evfemizmga nisbatan yangi hodisa bo‘lib, eskirgan evfemizmlar o‘rnida yangi shakldagi disfemizmlarni qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi. Evfemizm ta’sirchan, qarshilik ifodalovchi tushunchalar, tabulardan tashkil topgan bo‘lsa, qarama-qarshi ravishda disfemizmlar juda qo‘pol tarzda aytilgan so‘zlardan iborat ekanligi haqidagi fikrlarni ham chet el manbalarida kuzatishimiz mumkin. Demak, bir so‘z bilan aytganda, evfemizm va disfemizmlarga xos bo‘lgan yorqin farq hali ochilmagan hamda ular o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, o‘rinbosar so‘zlar sifatida ishlatilishi ham mumkin[6].

Dialektal qarg‘ishlar borasida to‘xtalar ekanmiz, yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, ular bir-biridan o‘zaro hududiy farqlanishlarga ega. Adabiy tilda “go‘ringda kuygur” yoki “go‘ring kuygur” tarzida qo‘llaniluvchi ifoda o‘zining dialektal variantiga ega bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega: “**go‘rso‘xta**”. Ushbu leksik birlik qo‘llaniluvchi asosiy hudud sifatida Surxondaryo viloyatining Uzun, Sariosiyo hamda Denov tumanlarini qayd etishimiz mumkin. Sababi, ushbu birlik ona tilimizga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ma’nosi “go‘r” – qabr, “so‘x” – yonmoq, kuymoq tarzida tarjima qilinadi. Yuqorida nomlari qayd etilgan hududlarning Tojikiston Respublikasiga yaqinligi va tojik tilining o‘zaro o‘zbek tiliga ta’siri tufayli ushbu so‘z bugungi kunda tilimizda faol leksik birlik sifatida qo‘llaniladi. I.Rahimning “Chin muhabbat” asarida ushbu so‘z ishtirok etgan misol ham uchraydi: “**Bozorov degan go‘rso‘xta Adolatga ko‘z olaytirib yuribdi[11]**”. Yoki Oybekning “Qutlug‘ qon” asarida ham ushbu ifodaga duch kelishimiz mumkin: “**Axir, pushaymon qilipti-da, go‘rso‘xta, - dedi Yo‘lchi hayratdan yoqasini ushlab[11]”**.

Ushbu birlikka o‘xshash ifoda Samarqand viloyatida ham uchraydi. Biroq ma’no jihatidan biroz farq qilsa-da, semantik maydon jihatidan umumiylik kasb etuvchi ushbu so‘z ham ushbu hududda yashovchi tojik xalqi ta’sirida o‘zbek tiliga o‘zlashgan: “**Morgaylo qolgur[9]**”. Ushbu disfemik birlikning ma’nosi “o‘lgur”, “o‘liging chiqqur” demakdir. Adabiy tilda ushbu ifoda quyidagi evfemizmlar orqali namoyon bo‘ladi: **ko‘z yumdi, vafot etdi, joni uzildi, narigi dunyoga rixlat qildi va hokazo[5]**.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda nutqimizda qo‘llaniluvchi qarg‘ish birliklar adabiy va dialektal nutqqa xosligi bilan ajralib turadi. Ularni tahlil qilishda, avvalo, qaysi nuqtayi nazardan yondashish asosiy masala sanaladi. Dialektik ifodalarga xos evfemizm va disfemizmlar ayrim hollarda boshqa hududda qo‘llaniluvchi dialektik qarg‘ishlar bilan bir xillik kasb etsa, ba’zan ular o‘rtasidagi xilma-xillikka guvoh bo‘lamiz. Semantik maydon nuqtayi nazaridan bir guruhga mansub qarg‘ish dialektlari ham hududiy ko‘lam jihatidan differensiatsialanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev F. Xorazm shevalari. Toshkent, O‘qituvchi. - 1961.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
4. Begaliyev M.Q. O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
5. J.K.Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press - 2004.
6. ДжураевА.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: 1991.

INTERNET-RESURSLAR:

7. www.ziyouz.com
8. www.fayllar.org
9. www.diss.natlib.uz
10. www.wikipedia.org